

Bandixon tumanida ikkita yirik loyiha amalga oshirilmoqda



“Bandixon agroklaster” MChJ tomonidan paxta va sun’iy toladan ip-kalava ishlab chiqarish hamda tikuvchilikni tashkil etish loyihasi amalga oshirilmoqda. Umumiy qiymati qariyb 189 mlrd soʻm boʻlgan loyiha doirasida yiliga 4 ming tonna ip kalava ishlab chiqariladi va 600 ta ish oʻrni yaratiladi.

Bugun viloyat hokimi Ulugʻbek Qosimov Bandixon tumanida boʻlib, mazkur loyihalar qurilishi bilan tanishdi. Hududdagi 4 ta mahallaning ishsiz, “daftarlar”da turgan fuqarolari bandligini taʼminlovchi hamda yillik eksport hajmini 5 mln oshiruvchi loyihalarni belgilangan muddatda ishga tushirish boʻyicha vazifalar belgilab berildi.

Xayrli ishlar rivoji uchun jonliq soʻyilib, ehson qilindi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)